Abu Rayhon Beruniy (973–1048) nafaqat Markaziy Osiyoda va Sharqda, balki butun jahonda ham buyuk mutafakkir, benazir kashfiyotchi sifatida tan olingan. XXI asrda butun dunyo ilmiy jamoatchiligi va tabiiy fanlar tadqiqotchilarining e'tirofiga ko'ra, u qomusiy olim sifatida tarix zarvaraqlariga kirgan. Alloma umri davomida turli fanlarga oid 200 dan ortiq asar va risolalar yozgan bo'lib, bizgacha ularning atigi 27 tasi yetib kelgan. Shu holatning o'ziyoq, u qiziqmagan fan qolmaganini ko'rsatadi. Beruniyning bu ilmiy tadqiqotlari ko'plab tillarga tarjima qilingan, dunyo olimlari tomonidan o'rganilgan va amaliyotda qo'llanilib, olamshumul natijalarga erishilgan. Bugungi rivojlanish pallasida fan va texnologiyalar taraqqiyotida Abu Rayhon Beruniyning ulkan hissasi bor. Bu allomaning jahon ilm-fani, dunyo tamadduni va butun insoniyat oldidagi buyuk xizmatlari, ilm-fanga bo'lgan cheksiz sadoqati, qat'iyati hamda sobitqadamligi yuksak ehtirom ila ta'kidlanishga loyiqdir.

2021-yil noyabr oyidagi YUNESKO Bosh konferensiyasining 41-sessiyasi qarori bilan Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligi unutilmas sanalar ro'yxatiga kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 25-avgustda “Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to'g'risida” qaror qabul qilindi. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida shunday fikr bildirgan edi: “Mashhur alloma bobomiz Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligi 2023 yili jahon miqyosida nishonlanishi, yubiley munosabati bilan ulug' ajdodlarimiz faoliyat ko'rsatgan Ma'mun akademiyasi faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, allomaning to'la asarlar to'plamini nashr etish, uning hayoti va ilmiy merosiga bag'ishlab xalqaro konferensiya o'tkazish zarurligini” ^[1:265] bayon etgan edi.

2023-yilning sentyabr oyida avvalo alloma tug'ilgan Qoraqalpog'istonning Beruniy tumanida, so'ngra Xorazmda va Toshkent shahrida ushbu sana xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirokida keng nishonlandi. “Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosining jahon fani rivojidagi o'rni” mavzusida o'tkazilgan ilmiy konferensiyada dunyoning 30 ga yaqin davlatidan taniqli beruniyshunos olimlar, ilm-fan arboblari ishtirok etdi. Bu ulug' alloma asarlarining jahon fani uchun bugungi kunda ham beqiyos ahamiyatga ega ekanidan dalolat beradi. Qomusiy



olimning noyob tadqiqotlari va yuksak tafakkuri tufayli arifmetika, algebra, geometriya maktablari rivoj topdi. Trigonometrik bilimlar mustaqil fan darajasiga ko'tarildi. Uning asarlari Mirzo Ulug'bek, Nikolay Kopernik kabi mashhur olimlarning kashfiyotlariga turtki bo'lgani jahon ilm ahli tomonidan e'tirof etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dunyoning mashhur olimlaridan biri Kave Farrax yozganidek, "Agar shunday ko'p qirrali buyuk iste'dod egalari – Al-Xorazmiy, Beruniy, Umar Xayyom ilmu fanga o'z hissasini qo'shmaganida, dunyoda balki hech qachon raketa qurilmalari yoki kompyuterlar ixtiro qilinmagan bo'lardi" ^[10].

Hamdan Sodiqov o'zining "Koinot nigohidagi alloma" kitobida Markaziy Osiyoning buyuk allomasi Abu Rayhon Beruniy hayoti va ijodiy merosini o'ziga xos tarixiy va badiiy yo'sinda yoritadi. Olim yashagan davr ruhi, mafkurasi va tarixiy jarayonlarning noodatiy talqini o'quvchini qiziqtirishi tabiiy. Falsafada Aristotel, astronomiyada Bruno, Galiley, Kopernikdan o'zib ketgan qomusiy olim Beruniy haqida birinchi bor eshiddik. Yerda turib, koinotdagi sayyoralarimizni ko'rgan, yulduzlar ilmida benazir tarix, botanika, geologiya, kimyo fanidan buyuk kashfiyotlar qilgan bobokalonimiz qanday inson bo'lganidan ajablandik. 1973-yilda yetakchi sharqshunos olimlar davrasida Beruniyning serqirra va sehrli olami haqida Ubaydulla Karimov allomaning "Saydana" asari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan ^[6:208].

Fizika fanining rivojiga qo'shgan hissasini tasavvur qilish uchun uning moddiyot, dunyoning moddiyligi, tabiat va jamiyat hodisalarini o'rganish usullari, harakat turlari, solishtirma og'irlik va uni aniqlash usullari, jismning inersiyasi, bo'shliq va atmosfera bosimi, suyuqliklarning gidrostatikasi, suvning issiqlikdan kengayishidagi alohida xususiyati, qor-yomg'ir, do'lning paydo bo'lish sabablari hamda energiyaning boshqa turdagi energiyalarga aylanishi, ishqalangan paytda jismning qahrabolanishi, ohangrabo va magnit qutblarining o'zaro ta'siri haqidagi tajribalari, magnit qutblari ta'sir kuchlarining oraliq muhitga bog'liqligi, dengiz va okean suvlarining ko'tarilishi va pasayishining sabablari, yorug'likning korpuskulyar va to'lqin xossasi, tovush va yorug'lik tezligi orasidagi munosabat, linzada yorug'likning qaytishi va sinish xossalarining sabablari, depressiya xossalari paydo bo'lish xususiyatlari haqidagi ilmiy qarashlari, jism yuzasi yoritilishining nur tushish burchagiga bog'liqligi, quyosh markazlik nazariyasi, sayyoralarning quyosh atrofidagi harakatlarining jismga yaqinligi, fazoviy jismlarning vaznsizligi kabi yana ko'plab ajoyib qarashlari hozirgi kunda ham o'z mohiyatini yo'qotmaganligining o'ziyoq buyuk bobokalonimizning ulug' olim ekanligini ko'rsatadi. Bu cheksiz iste'dod sohibining o'z zamonasidan ming yillar ilgari ketganligidan nishonadir.

Geologiya sohasida Beruniy ajoyib kashfiyotlar qilgan. Yerni o'rganish masalasiga ilmiy yondashdi. Yer yuzasining har bir qismi uzoq tarixiy taraqqiyotiga ega ekanligini yozadi. Turkistonning ba'zi joylari, shu jumladan Amudaryo vodiysining geologik rivojlanishini birinchi marta jiddiy o'rganishga harakat qilgan ham Beruniy bo'lgan. Uning Amudaryo vodiysining geologik o'tmishi va Orol dengizining paydo bo'lishi haqidagi xulosalari o'sha zamonning eng muvaffaqiyatli geologik tahlillaridan biri hisoblanadi. Beruniyning foydali qazilmalar qatlamlarining paydo bo'lishi, tog' jismlarining yemirilishi, nurashi kabilar haqidagi xulosalari katta ahamiyatga ega. Yer qobig'ida og'irlikning muvozanatlashib turishi, yer osti jismlarining joylashishi haqidagi farazlari ham juda ahamiyatlidir.

Buyuk alloma "Geodeziya" asarining boshlang'ich qismida turli fanlarning paydo bo'lishi haqida so'z yuritib: "Yangi paydo bo'layotgan turli xil fanlar insonning yashash ehtiyoji yuzasidan paydo bo'ladi" deydi. Zamonaviy fan esa XIX–XX asrlarga kelib, buning haq ekanligini tan oldi. "Dengizlar quruqlikka, quruqliklar esa dengizga aylanadi" degan nazariyasiga suyanagan buyuk alloma Xorazm past tekisliklaridagi chig'anoqlarni ko'rib, bu yer bir paytlar katta bir dengizning tubi bo'lganligini aytadi va bu fikri bilan geologiya faniga asos solgan edi. Bu fikrlarni sakkiz–o'n asrdan so'ng fan tasdiqladi.

Muqaddas kitoblarda yer olti kunda yaratilganligi haqida so'z boradi. Beruniy esa ushbu "olti kunni" hind vaqt o'lchami va boshqa vaqt o'lchamlari bilan solishtirib, yerning yaratilishi bir necha ming yilliklarni o'z ichiga oladi, deydi va bu bilan yerning yaratilish tarixini talqin qiladi. Yuksak idrok egasi bo'lgan buyuk dahoning rang-barang fikrlari hayron qolarli darajada o'zgarib turadi. Masalan, astronomiya haqida gapira turib, she'riyatga o'tib ketadi, fikriy tafakkuri serqirra bo'lganligi uchun ham boshqa fanlardan misollar keltiradi, dalil va asoslar bilan o'z fikriy xulosasini mustahkamlaydi. Alloma qiyosiy tahlil qilish metodidan keng foydalangan. Hind fani, falsafasi, diniy e'tiqodlari va urf-odatlar haqidagi ma'lumotlarni yunon falsafasi va mifologiyasi bilan solishtirib, bir qancha falsafiy asarlar yozganki, bu qarashlar falsafa fanida yemirilmas poydevor va quloq sig'mas ustun bo'lib kelmoqda. Mineralogiyadagi qimmatbaho tosh haqida gapirib turib, arab shoirining she'rlaridan misollar keltiradi. Bu bilan u arab she'riyatining jozibadorligini o'z o'quvchisiga ko'rsatish orqali undagi qimmatbaho tosh haqidagi qimmatli fikrlarini keltirib, umumiy xulosa chiqaradi. Natijada ham ilmiy, ham badiiy jihatdan tasvirlangan bu fikr o'quvchi ongida muhrlanib qoladi. Shu bois buyuk daho shunday deydi: "Garchi biz ba'zi joylarda turli fanlarga o'tib, ya'ni asl mavzudan biroz chekinib, bayonimizga aloqasi uzoq masalalarga kirishib ketsak ham, bu hol gapni cho'zish va ko'paytirish maqsadida emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik uchundir.

Chunki doim bir narsaga qarayverish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan-fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi, birini ko'rib ulgurmay boshqasi boshlanadi... ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi".

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Beruniy asarlarini o'qiganimizda mavzudan biroz chekinish holatlarini uchratishimiz mumkin. Lekin bu chekinishlarning tag zahirida ilmiy kashfiyotlar, ilmiy haqiqatlar yotganligini payqab qolamiz. Germaniyaning taniqli sharqshunos olimi Gottxard Shtrommayer "Al-Beruniy: G'arb dunyosi bilmagan daho" maqolasida mardona bir e'tirof bildirgan: "Serqirra olim Al-Beruniy o'rta asrlarda ilm-fan gullab-yashnagan Sharqdagi taraqqiyotni G'arb bilan qiyoslab, Sharqning qariyb bir oldinda ekanligini aniqlashga muvaffaq bo'lgan. Nobel (mukofoti) bundan 1 000 yil muqaddam tashkil etilganida edi, shubhasiz, u o'z navbatida musulmon dunyosiing ana shu olimiga berilgan bo'lar edi. Bordiyu, bizning mintaqamizda dastlabki ming yillikda Abu Rayhon Beruniydek daho olimimiz bo'lganida va u lotin tilini o'rganib, o'tkir nigohi bilan biz kabi oddiy madaniyatli g'arbiy yevropaliklarni tashqi dunyo tarixi bilan tanishtirganida, undan g'oyat cheksiz minnatdor bo'lar edik" [6:3].

Yana boshqa olimlarning yozishicha, butun dunyo kashfiyot deb ingliz olimi Isaak Nyutonning "Iner-siya qonuni"ni tan olgan bo'lsa, undan olti asr oldin Beruniy bu haqda ilk bor fikr-mulohaza yuritgan. Albert Eynshteynning olamshumul kashfiyoti – "Nisbiylik nazariyasi"ning ilk tamal toshini buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy qo'yganini ham ilmiy jamoatchilik tan olmoqda. Professor Pirmat Shermuhamedov yunon, hind, xitoy olimlarining "Koinotda bo'shliq yo'q" degan nazariyasiga jahon olimlari orasida birinchi bo'lib Abu Rayhon Beruniy rad etuvchi dalillarni keltirgani va uni asoslaganini yozgan. "Bu hodisani aniqlash, uni to'g'ri ta'riflash – nisbiylik nazariyasining qon tomirlaridan biri haqida so'z yuritish demakdir" [7]. Professor P. Shermuhamedovning "Dahoning tug'ilishi yoxud Abu Rayhon Beruniy qismati: ilmiy-ma'rifiy qissa" asarida qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning hayoti va serqirra ilmiy faoliyati qiziqarli hikoya qilingan. Unda buyuk Beruniy va u zot yashagan davr haqida juda ko'plab yangi tarixiy ma'lumotlar ilk bor, boz ustiga badiiy mahorat bilan bayon etilgan [7:340].

TAHLIL VA NATIJALAR

Buyuk bobokalonlarimiz Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino ham "materiya abadiy, hech narsa yo'q bo'lmaydi, yo'q narsadan bor ham bo'lmaydi", degan edilar. Lekin ushbu nazariya ilmiy adabiyotlarda Lomonosovga oid deb ta'kidlanadi. Vaholanki, bu qonun sakkiz yuz yil burun Beruniy va Ibn Sino tomonidan isbotlangan. "Kosmosdagi jismlar og'irlikka ega bo'lmay, qushlar kabi uchib yuradi", deb yozadi Beruniy. Bu qonunni, ya'ni vakuumni, buyuk alloma quyidagicha sharhlaydi: "Yer aylanayotganda ekvatoridagi tezlik qutbdagi tezlikdan katta bo'ladi, shu sabab jismning ekvatoridagi og'irligi qutbdagisiga nisbatan kamroq bo'ladi". Bu fikr bilan u harakatlanayotgan jismning markazdan qochuvchi kuchga qanday ta'sir qilishi nazariyasiga asos soldi. Beruniy salohiyati oldida hukmdorlar ham "otdan tushgan edi". Zotan, alloma o'z davrigacha birinchi bo'lib hamma jismlarning yerga tortilishini, yer kurra ekanini hamda tabiat xolis bo'lib, o'z qonuniga binoan o'zgarib turishini aytgan edi.

Buyuklarning buyugi Beruniy va Ibn Sino abadiylikka daxldor deb ikki narsani tan oladi: birinchi – materini, ikkinchi – zaruriy abadiylik timsoli Allohni. Bu ikkalasi egizakdir, ularning na boshi, na oxiri bor, degan nazariyani ilgari suradi. Beruniy hindshunoslikda tengi yo'q olimdir. Beruniyning "Hindiston" asari 1030-yilda yozilgan. Bu asar G'arb va Sharq olimlari tomonidan yuksak baholangan. Mahmud G'aznaviyning Hindistonga qilgan yurishlarida Beruniy hamroh bo'lgan. Garchi olimning Hindistonda qachon va qanday yashagani aniq bo'lmasa-da, Xorazmdan olib ketilgandan keyin bir oz vaqt Hindistonning shimolidagi Nandana qal'asida yashagani ma'lum.

Hindistonda sanskrit tilini puxta o'rganishi uning hind madaniyati, adabiyoti va Hindistonning o'sha davr olimlari bilan yaqindan tanishishiga hamda bu mamlakat haqida o'lmas asar yaratishiga imkon berdi. "Hindiston" hajmi jihatidan juda katta asar bo'lib, u 80 bobdan iborat. Hozirgi hind olimlarining fikricha, Hindiston haqida hali-hanuz hindlarning o'zlari shunday ajoyib asar yaratmaganlar, Beruniygacha esa hech narsa yozilmagan. Shuning uchun hindlar Beruniy nomini chuqur hurmat bilan tilga oladilar.

Jo'shqin Amudaryodan suv ichib, muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog'ida unib-o'sgan, xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oni, Sakkokiy, Munis, Firuz, Ogohiy, Bayoniy va boshqa ko'plab allomalari, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan [2:241].

Hindiston haqida asar yozishga kirishar ekan, Beruniy qadimiy hind tili – sanskritni o'rganadi, bu tilda yozilgan kitoblar bilan tanishadi, turli sohalar vakillaridan ma'lumotlar to'playdi; hindlar hayoti, urf-odati, ayniqsa, e'tiqodiga oid diniy kitoblar bilan batafsil tanishadi. Beruniy faqat bu kitoblar bilangina qanoatlanmay, qadimgi



yunon va rim adiblari asarlaridan ham foydalanadi. "Hindiston"ning rus tiliga tarjimasi uchun so'z boshi yozgan olimlar A.B.Xolidov va V.G.Ermanlarning aniqlashicha, Beruniy asarda Gomer, Platon, Prokl, Aristotel, Ioann Grammatik, Afrodiziyalik Aleksandr, Tianlik Appoloni, Porfiri, Ammoniy, Arat, Galen, Ptolomey, Soxta Kallisfen kabilarning asarlaridan foydalangan va parchalar keltirgan ^[3:49].

Yoshlik yillarida Beruniy quyosh tutilishini kuzatish bilan ham shug'ullangan. "Geodeziya" asarida olim quyosh tutilishini kuzatish natijasida ko'zi ancha xiralashganini xabar qiladi. Mazkur bebaho asarida Beruniy Yer shari globusi yoki yarim globusni yasab, uning sirtiga koordinatalari ma'lum bo'lgan punktlarni tushirganligini ham o'quvchiga ma'lum qiladi. Vaholanki, yaqin davrgacha: "Yer shari geografik globusi birinchi marta 1492-yili Martin Bexaym degan olim tomonidan ixtiro qilingan", deb aytib kelinardi. "Geodeziya"dan geografik globus dastlab Beruniy tomonidan yasalganligi ma'lum bo'ldi. Abu Rayhon Beruniyning 30 dan ortiq til va lahjalarni bilgani, ularni asarlarida qo'llagani manbalardan ma'lum. Xususan, "Saydana" asarida buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ahir qomuschi olim Deni Didro "daholar osmondan tushmaydi", deb bejiz aytmagan. XII asrda yashagan Yoqut al-Xamaviy ar-Rumi Beruniy haqida "Bilim va ziyraklik bobida unga teng keladigan odamni na o'tmish, na kelajak bera olmagan", deb bejiz yozmagan. XIII asr olimi Abul Faraj ham "Beruniyga teng keladigan yo'q", degan ta'rifida nozik ishora bor.

Beruniy yaratgan "Hindiston"ga o'xshagan asar umuman fan tarixida uchramaydi. Unda ham mamlakat, ham yarim orol xalqlari haqida shunchalik boy ma'lumot beriladiki, aql bovar qilmaydi: diniy tabaqalar, e'tiqodlar, xurofot, falsafa, aniq fanlar, qonun va urf-odatlar, diniy-tarixiy afsonalar, yozuv turlari, yarim orol jug'rofiyasi, adabiyoti va hokazolar. Keyingi davr olimlari Beruniy ma'lumotlarining to'g'riligini tekshirib, olimga xos bo'lgan ilmiy halollikni yana bir bor tan olganlar. "Hindiston" asarida berilgan ma'lumotlar shunchalik boy va qimmatliki, ular haligacha ham o'z mohiyatini yo'qotmagan. Bu asarga teng keladigan biror asar yo'q. Beruniy "Yodgorliklar", "Mineralogiya", "Saydana", "Al-Qonun al-Ma'sudiy", "Geodeziya", "Astronomiya" kabi buyuk asarlarning muallifi, ammo u "Hindiston"ning muallifi sifatida yuksak baholanadi ^[5:260]. Kitobning yana bir qimmatli tomoni – yo'qolib ketgan hind, qadimgi eron, Moniylik kitoblaridan ko'plab parchalar keltirilganki, ular orqali o'sha asarlar xarakteridan xabardor bo'lishimiz mumkin. Hindiston haqida Beruniy yirik asaridan tashqari kichik hajmdagi ilmiy risolalarida ham ma'lumotlar beradi.

Beruniy fanning hamma sohalarida samarali ijod qilgan. Uning ilmiy merosi juda keng va rang-barang. Allomaning ilmiy ish sohasidagi zo'r qobiliyati uning ko'pchilik zamondoshlari va keyingi olimlar tomonidan e'tirof etilgan. 1035-1036 yillarda Beruniy ilmiy ishlarining ro'yxatini tuzadi. Bunda shu vaqtgacha yozgan kitob va risolalari 113 taga yetgani ko'rsatilgan. Keyingi yozgan asarlarini ham qo'shsak, u qoldirgan ilmiy meros 152 kitob va risoladan iborat. Uning asarlari mavzo' jihatdan turli-tuman. Ko'pchilik asarlari o'z zamonasida o'ziga xos bir ensiklopediya hisoblangan. Uning astronomiyaga oid 70 ta, matematikaga oid 20 ta, kartografiyaga oid 4 ta, meteorologiya va mineralogiya oid 3 tadan, fizika va farmakologiyaga oid 1 tadan, tarix va etnografiyaga oid 15 ta, falsafaga oid 4 ta, adabiyotga oid 18 asarlaridan bugungi kunda ham foydalanilmoqda. Beruniy turli tillardan bir qancha ilmiy va adabiy asarlarni tarjima ham qilgan. Afsuski, hozircha olimning 27 asarigina ma'lum. Qolganlari bizgacha yetib kelmagan yoki hali topilganicha yo'q. Beruniy ijodini o'rganish, uning asarlarini nashr etish, boshqa tillarga tarjima qilish ishlari o'tgan asr oxirlaridan boshlandi. Uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Geodeziya", "Mineralogiya", "Al-Qonuni Mas'udiy", "Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar" va boshqa asarlarining matni nashr etildi va turli tillarga tarjima qilindi. Tanlangan asarlari rus va o'zbek tillarida chop etildi. Beruniyning olamshumul asarlarining biri—"Al-Qonuni Mas'udiy" risolasi o'rta asr astronomiyasining qomusi deyish mumkin.

Asarning asosiy ilmiy qimmatlari astronomiya, geodeziya, matematika, trigonometriya va matematik jug'rofiya sohasidagi boy ma'lumotlarga egaligidir. To'g'ri, Beruniy ham Ptolomey kabi geotsentrik ta'limot tarafdori, ammo olim aniqlab chiqqan yer harakatining o'lchovlari fanda geliotsentrizm g'oyasi g'alabasini hozirladi. "Al-Qonuni Mas'udiy" asarida ham Beruniy o'z dunyoqarashining materialistik asosiga sodiq qoladi – Yer shar shaklida, asosiy tabiat qonunlarining biri – hamma jismlar har yoqdan Yer markaziga qarab harakat qiladilar. Shu sababdan ham dengiz, okeanlardagi suvlar to'kilib ketmaydi. Olim ana shu yerning o'ziga tortish nazariyasini, ya'ni davrlar o'tib Nyuton nomi bog'langan qonuniyatni bir necha asr avval bashorat qilgan. Keyinchalik "Al-Qonun al-Ma'sudiy"ning ham katta qismini lotin tiliga tarjima etadi. Asar Fransiyaning Monpele shahrida qayta-qayta ko'chiriladi. Bu asarlar Fransiya maktablari va universitetlarida hozirgacha o'rganilib keladi. Ammo tarjimon olim ismini "Ali Broniy" shaklida yozgan va haligacha shunday ataladi ^[9:707].

Umuman, Sharqda va Yevropadagi barcha olimlar ta'kidlashadiki, hind xalqining tarixini o'tmishda ham, hozir ham Beruniychalik hech kim yozib bera olganicha yo'q. Natijada, buyuk olimning xarizmatik tug'ma qobiliyati va tasavvuridan hayratga tushgan Yevropa olimlari shunday xulosaga kelishadi: "Beruniy XI asrning Leonardo da Vinchisidir", deydi Aurel Steyn. "Beruniy XI asrning Leonardo da Vinchisidir va Leybnitsi edi", degan edi Karro do Bon.

Arastu esa "Atom bo'linadi, bo'linaveridi, bo'linishning chegarasi yo'q", – deb ta'kidlaydi. Va o'sha davrdagi boshqa olimlar ham ushbu fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Bu masalada Beruniy hazratlari Ibn Sinoga 18 ta savol



yuboradi. Bu yozishmalar uning tabiat falsafasi va fizika masalalari bilan qiziqqanligini ko'rsatadi. Beruniyning Ibn Sino bilan yozishmalari uning Xorazmda turgan davriga to'g'ri keladi. Ey do'stim Abu Ali, ba'zi faylasuflar atom bo'linmaydi, deb aytishadi. "Atom bo'linmaydi", deyishlik – o'ta nodonlikdir, deydi. Ikkinchi guruh faylasuflar "atomning bo'linishi cheksiz", deb aytishadi. Bu esa o'ta ketgan nodonlikdir, deydi. Agar atom bo'linishi cheksiz bo'lsa, modda yo'q bo'lib ketishi kerak, vaholanki, modda abadiydir, deydi. Bu masalada sening fikring qanday? Shunda Ibn Sino ustoz Arastuning, Roziyning "bo'linadi" degan fikrini cheksiz deb tushunmagin, bo'linadi, lekin bo'linishning chegarasi bor, deydi.

Beruniy esa bu javobdan qoniqmaydi va e'tiroz bildirib, yana maktub yuboradi. Ey, Ibn Sino, sen javobingda ustozlarning fikrini takrorlagansan-u, o'zingning fikringni ko'rmayapman, o'zingning fikringni ayt, deydi va davom etadi: Faraz qilaylik, atom ikkiga bo'linsa, shu bo'lingan bo'laklar orasida katta bo'shliq mavjud, deydi. Shu bo'lingan bo'laklar shu bo'shliqda to'xtovsiz harakatda bo'ladi, ular orasida ta'sir kuchi bor, lekin shu bo'lingan bo'lakchani o'lchami oraliqdagi bo'shliqdan necha marta kichik yoki katta – buni bir tasavvur qilib ko'ringmi, tafakkur qilib ko'rk: shu bo'lingan bo'lakcha bo'shliqdan necha marta kichik? – deb, fanning barcha zamonlari uchun xos bo'lgan savol beradi. Vaholanki, bu savolga hozirgi zamon fani aniq javob bera olganicha yo'q.

Bu savol-javoblarda ikki mashhur olim fazo, issiqlikning tarqalishi, jismlarning issiqlikdan kengayishi, nurning aks etishi va sinishi kabi masalalarda ilmiy munozara olib borgan. Beruniy taraqqiyot etish va yo'q bo'lishga sabab bo'lgan tabiiy hodisalarni tadqiq etar ekan, Allohning yaratuvchilik qudratini inkor etmaydi. Olim tabiatda qotib qolgan narsa yo'q, "dunyodagi hamma narsa ma'lum vaqtdan keyin bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turadi", degan nuqtayi nazarda turadi. Beruniyning atomistikasi – atomlarning moddiy xarakteri va har qanday determinizmni inkor etuvchi mutakallimlarning fikr va qarashlariga qarama-qarshi qo'yilgan. Uning "dunyolar ko'p" degan xulosalarga olib keluvchi fikrlari ham bo'lgan. Buni olimning falsafiy baxslarida Ibn Sino ham sezgan edi. Beruniy o'z mulohazalarida boshqa dunyolarning moddiyligi haqidagi tushunchaga asoslangan.

Bilish nazariyasi xususida ham o'ziga xos fikrlari mavjud. Uning fikricha, bilishning asosi – dunyo haqidagi bilimlarimiz manbai bo'lmish sezgi a'zolari orqali olinadi. Umuman, ilmiy bilimlar haqida gapirar ekan, bu aql-idrok tufayli erishilgan yutuqdir, deydi. Beruniy bu sohada tajribaning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Beruniy birinchi bo'lib, Arastuning fan sohasidagi xizmatiga yuksak baho berish bilan birga, tanqidiy fikrlar ham bildirgan. Beruniy Arastuning "tabiiy joy", "dunyoning yagona ekani", "og'irlik va yengillik" kabi tushunchalarini tanqid qiladi. Arastuning "og'ir" va "yengil" degan tushunchasidan farqli ravishda Beruniy Ibn Sinoga yozgan "E'tirozlar"ida hamma narsaning Yer markazi tomon tortilishi haqidagi fikrni ilgari suradi. Bu tortilish kuchi haqidagi nazariyani ishlab chiqish yo'lida qo'yilgan muhim qadam edi [8:719–723]. Beruniy o'zining aniq va puxta kuzatishlariga asoslanib, u osmon ekvatoriga Quyosh ekliptikasi og'ishining kattaligi ($23^{\circ}34'$) va ekliptika og'ishi uzunligining asriy o'zgarishlarini belgilashda, Quyosh apogeyasi (avji) uzoqligini aniqlashda qadimgi va o'ziga zamondosh bo'lgan astronomlarga qaraganda ancha aniq natijalarga erishgan. Beruniy 1029 ta yulduzning koordinatalari va yulduz kattaliklari qayd etilgan yulduzlar jadvalini tuzgan.

Mashhur siyosatchi va jamoat arbobi Indira Gandi shunday degan edi: "Hali dunyoda hech kim hind xalqini, uning qadim va boy madaniyatini Beruniychalik targ'ib qilmagan. Binobarin, hind xalqi bor ekan, uning do'sti Abu Rayhon Beruniy ham bor. Biz hamisha uning ilg'or tafakkuri oldida bosh egamiz". Bizning zamonamizda fan tarixi bilan shug'ullanuvchi har qanday mutaxassis o'rta asr donishmandi Abu Rayhon Beruniy asarlarini mutoala qilar ekan, ularda fan uchun g'oyat qimmatli ma'lumotlar, ajoyib fikrlar, dalil va taxminlar, genial g'oyalar borligiga ishonch hosil qiladi. Jahon madaniyatini o'lmas durdonalar bilan boyitgan bu zabardast, buyuk, xarizmatik aql egasining teran fikrlari abadiylikka arqon solib turaveradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilm-fan kishilarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan paydo bo'ladi. Zero, "Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga baho berilar ekan, mashhur amerikalik fan tarixchisi J. Sarton XI asrni 'Beruniy asri' deb ta'riflaydi. Bunday yuksak va haqli baho, avvalo, qomusiy tafakkur sohibi bo'lmish buyuk vatandoshimizning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan izohlanadi" [4:42].

Fransiyaning sobiq prezidenti Fransua Mitteran: "G'arbda 'Al-Baron' deb nom olgan Sharqning buyuk mutafakkir olimi Abu Rayhon Beruniyning insoniyat oldida qilgan xizmati shu qadar buyukki, uning yoniga boshqa birona millatning vakilini qo'yib bo'lmaydi. U fanning barcha sohalarida birinchi edi. Jahon ilm-fani tarixini Abu Rayhon Beruniyning ilmiy ishlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi", degan edi. "Mana shunday farzandlarimiz orasida yangi avlod Xorazmiy va Farg'oniy larni, Beruniy va Ibn Sinolarni, Ulug'bek va Navoiylarni tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat. Bu yo'nalishda 'Beruniy izdoshlari', 'Mirzo Ulug'bek vorislari', 'Alisher Navoiy davomchilari' kabi ko'rik-tanlovlar o'tkazilib, g'oliblarni rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yiladi" [1:249].



Bizning zamonamizda fan tarixi bilan shug'ullanuvchi har qanday mutaxassis o'rta asr donishmandi Abu Rayhon Beruniy asarlarini mutoala qilar ekan, ularda fan uchun g'oyat qimmatli ma'lumotlar, ajoyib fikrlar, dalil va taxminlar, genial g'oyalar borligiga to'la ishonch hosil qiladi. Jahon madaniyatini o'lmas durdonalar bilan boyitgan bu zabardast, buyuk, xarizmatik aql egasining teran fikrlari abadiylikka arqon solib turaveradi. Abu Rayhon Beruniyning zamondoshi, qonunshunos olim al-Valvolijiy shunday deydi: Bir kuni Abu Rayhonning huzuriga bordim, qarasam, u qiynalib nafas olayotgan edi. Bu – hayotining so'nggi lahzalari ekani bilinib turardi. O'shanday holda bo'lsa-da, menga qarab: – Sen bir kuni menga “al-jaddat al-fosida” hisobi haqida nima degan eding? – dedi. Men uning qiynalayotgan holiga rahmim kelib:

– Shuni bilish hozir joizmi? – dedim. – Ey sen, – dedi Abu Rayhon, – men bu dunyo bilan xayrlashayotgan paytimda o'sha masalani bilmay ketganimdan ko'ra, bilib ketganim yaxshiroq emasmi? – dedi.

Men o'sha masalani tushuntirib berdim, u esa uni yodlab oldi va o'zi ham va'da bergan narsasini menga o'rgatdi. Shunday qilib, men uning huzuridan chiqdim. Hali uyga yetmay, yo'lda ketayotganimda Abu Rayhon uyidan yig'i ovozi eshitildi... Bu – Beruniyning vafotidan darak edi. Umrining eng so'nggi lahzasigacha ilm izlab o'tgan, hayotining har bir soniyasini ilmga, aql-idrok va tafakkurga sarflagan Abu Rayhon Beruniy – buyuk olim, buyuk inson, buyuk kashfiyotchi edi.

Xulosa shuki, ulug' mutafakkir Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosi ming yilliklar osha yaratilgan minglab nazariyalarning asosi sifatida yashayveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 265 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 241 b.
3. Абу Райхон Беруний. Хиндистон / Пер. А.Б. Халидов, Ю.Н. Завадовский, комм. // Избр. Пошв. – Т.2. – Тошкент: Фанлар академияси нашриёти, 1963. – 728 с.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
5. Крачковский И.Ю. Арабская географическая литература. Т.2. – Москва – Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1957. Скан, OCR, обработка: mor, 2012. – 260 с.
6. Sodiqov H. Koinot nigohidagi alloma. – Toshkent: ART FLEX, 2011. – 208 b.
7. Shermuhamedov P. Dahoning tug'ilishi yoxud Abu Rayhon Beruniy qismati. – Toshkent: VORIS, 2009. – 340 b.
8. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 12 jildlik. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 736 b.
9. Sarton, G. Introduction to the History. – P.707.
10. Muhammadrizo Q. Buyuk allomaning boqiy ilmiy merosi // “Xalq so'zi”, 2023 yil 24-oktyabr, №226(8569).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.